

Nukus Davlat Pedagogika Instituti, PhD. Sultanova Aydin Menlibaevna taqrizi ostida

Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrası o'qituvchisi
Nurmanova Dilfuza Jamilovna
dilfuzanurmanova05@gmail.com
+998-93-665-56-60

SINF RAHBARLIK FAOLIYATIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

(bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchi(bo'lajak boshlang'ich o'qituvchi)larining sinf jamoasi, ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlash jarayonida muloqotning nechog'lik ahamiyatli ekanligi, kommunikatsiyadan qanday, qay tarzda qulay yoki noqulay vaziyatlarda qo'llay olish haqida fikr yuritilgan. Tavsiyaviy xususiyatda yozilgan bu maqola nafaqat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga balki o'qituvchilar jamoasi bilan samarali ishlash, jamoada o'zi va jamoa a'zolari uchun qulay muhitni o'rnatish, maqsadlarning natijadorligiga erishishni istagan barcha pedagoglar uchundir.

Kalit so'zlar: Kommunikatsiya, jamoa, mashg'ulot, vaziyat, g'oyalar, maqsad, psixologik, muammo, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение общения в процессе совместной работы классного коллектива учителей начальных классов (будущих учителей начальных классов), их родителей, а также способы использования общения в благоприятных или неблагоприятных ситуациях. Данная статья написана в качестве рекомендации и предназначена не только для будущих учителей начальных классов, но и для всех педагогов, которые хотят эффективно работать с группой учащихся, создать комфортную среду для себя и членов своего коллектива, добиться результатов их цели.

Ключевые слова: Общение, команда, обучение, ситуация, идеи, цель, психологическое, проблема, развитие.

Abstract: In this article, the importance of communication in the process of working together with the class team of primary school teachers (future primary school teachers), their parents, and how to use communication in favorable or unfavorable situations. It is thought to be taken. This article is written as a recommendation and is intended not only for future elementary school teachers, but also for all pedagogues who want to work effectively with a group of students, establish a comfortable environment for themselves and their team members, and achieve the results of their goals.

Key words: Communication, team, training, situation, ideas, goal, psychological, problem, development

KIRISH

Bugungi glaballashgan davrda maktab ta'limining asosiy bug'uni bo'lgan sinf va sinf jamoasi bilan ishlash strategiyalarning samaradorligi sinf jamoasi uchun mas'ul pedagogning har tomonlama qobiliyatli bo'lishini talab qiladi.

U o'z sinfini boshqarishda jamoani rag'batlantirishga fan o'qituvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik va fikr almashish sinfdagi muhitni yaxshilashga yordam berishi zarur [7]. O'qituvchilarini, fan o'qituvchilari ularning asosiy ehtiyojlari va muammolarini tushunishlari uchun ochiq muloqotda bo'lish yaxshiroqdir. O'qituvchilar uchun guruhda ishlash, muhokamalar va guruh loyihalarini amalga oshirish

strategiyalarini bajarishda kommunikativ kompetetsiya avvalo, jamoaviy ta'limda va ularga erishishlari uchun samarali asos yaratiladi. Shunday ekan bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun sinf rahbarligida muloqot tushunchasi juda muhimdir [1]. Muloqot pedagogik faoliyatda yadroning asosiy qismi darajasida ifodalash mumkin, chunki o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda qulay psixologik muhitni yaratishga yordam beradi [1]. Ushbu muhit o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga, savollar berishiga va o'zaro fikr almashishiga imkon yaratadi. O'qituvchilar sinf rahbari sifatida o'z muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish orqali, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishi mumkin [2]. Bu jarayonlarda o'qituvchi o'zining pedagogik muloqotini yaxshilashga va o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

O'quvchilar jamoasi bilan samarali muloqot strategiyalarini yaratish o'qituvchilar uchun muhim vazifadir [3]. O'qituvchilar o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash va dars jarayonida qatnashishlarini oshirish uchun turli muloqot usullarini qo'llashlari kerak. Ushbu strategiyalar quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- O'zaro fikr almashishni rag'batlantirish;
- Qiziqarli va interaktiv darslarni tashkil qilish;
- O'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish uchun imkoniyatlar yaratish.

Bunday strategiyalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga va ularda o'z fikrlarini erkin ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi[4]. Buning natijasida dars jarayoni samarali va ko'p tomonlama bo'lishi mumkin. Sinfni boshqarish uchun shaxslararo muloqot ko'nikmalarini oshirish o'qituvchining samarali faoliyatining ajralmas qismidir [5]. O'qituvchilar o'zaro aloqalarda, shaxsiy munosabatlarda va dars jarayonida shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga xissa qo'shishi mumkin.

Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi yo'llar amalga oshirilishi mumkin:

- O'zaro hurmat va tushunishni ta'minlash;
- O'quvchilar bilan samarali va ochiq muloqot olib borish;
- Konfliktlarni hal qilishda muvozanatni saqlash;

Shaxslararo muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi nafaqat sinf ichidagi ijobiy muhitni yaratadi, balki o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini ham mustahkamlashga yordam beradi, bu esa ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[6]. Bu borada Xalqaro ta'limda sinf jamoasini boshqarish, kommunikativ kompetetsiya borasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ayrim tavsiya va takliflarini keltirib o'tmoqchimiz.

O'quvchilarning faolligini ta'minlashda, o'quv jarayonini qiziqarliroq qilish uchun interfaol usullardan foydalanish mumkin [8]. Interfaol usullar, rolli o'yinlar, guruh muhokamalari va interfaol loyihalar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Bunday usullar uchun o'quvchilar mavzuga yordam berishlari va muammo yaratishlari mumkin. Shuningdek, interfaol usullar o'quvchilarga hamda o'qituvchining kommunikativ kompetetsiyasini takomillashtirishda ularga yordam beradi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Sinfda ijobiy muhit yaratish uchun psixologik strategiyalardan ham foydalanish zarur [9]. Ijobiy muhit o'quvchilarning hissiy holatini yaxshilashga, stressni kamaytirishga va o'zaro hurmatni rivojlantirishga yordam

beradi. Buning uchun ijobiy fikrlashni qo'llash, rag'batlantirish, shunga o'xshash usullarni aniqlash va ko'rsatish mumkin. Psixologik strategiyalar o'quvchilarda o'zini o'zi his qilish, ijodkorlik va ijtimoiy moslashishga yordam beradi, bu esa o'quvchining boshlang'ich ta'lim davridanoq ta'lim olishdagi umumiy samaradorligiga ijobiy hissa qo'shadi.

Quyida sinf jamoasidagi kommunikativ kompetensiyasini yanada yaxshilash, qulay muhitni yaratish uchun eng yaxshi tavsiya etiladigan amaliyotlar

****Yaxshi muloqot**** - Sinf jamoasida birlashgan jamoani yaratish. Ijodiy va ochiq harakatni rag'batlantirish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida muntazam ravishda uchrashuvlar tashkil etish kerak. Masalan, keyingi darslarning har birida mashg'ulot g'oyalari, mashg'ulotning yangiligi va dolzarbligi haqida muhokamalar yoki sinf jamoasining fikrlarini o'rganish.

****Vazifalarni aniqlang**** - Jamoadan jamoaviy sinf vazifalarni aniqlash, zarur bo'lganda ular uchun samarali yechimlarni taklif qilish. Masalan, bitta o'quvchiga loyiha yoki topshiriq berish guruh va ularning imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida jamoadagi muammolarni kamaytiradi.

****Raqobat va oilaviy motivatsiya**** - Bu jarayon o'quvchilarning ijodkorligi va tayyorgarligida yordam berishdir. Misol uchun, guruhlar uchun musobaqalar, o'zlari uchun, o'z navbatida, yutuqlarga erishishga undaydilar, lekin ular jamoa a'zolarining bir qismiga individual ravishda yordam berishi ham mumkin.

****Qulay muhit yaratish**** - o'quvchilarni rag'batlantirish jamoaviy mashg'ulotlarda ijodiy muhit yaratishga yordam beradi. O'quvchilar uchun yaratilgan qulay muhit o'z fikrlarini erkin ifodalash uchun loyiha yoki jamoaviy holda innovatsion yangiliklar yaratishga undaydi. Bunday muhit ularga o'zaro aloqa va axborotni yaxshilashga yordam beradi.

****Ta'limni individuallashtirish**** - Birinchidan, o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, sinf jamoasini boshqarishda qulay hisoblanadi. Ularning qiziqishlarini o'rganish uslublari va ehtiyojlarini aniqlash uchun individual ta'lim rejalarini ishlab chiqilishi mumkin. Misol uchun, interfaol o'yinlar va loyihalar har bir o'quvchining samaradorligiga yordam beradi.

Pedagog har bir o'quvchi yoki jamoa bilan yaxshi ishlashi uchun ular bilan ko'proq kommunikatsion mashg'ulotlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida dunyo miqyosida eng sifatli hamda samarali ta'lim beriladigan tashkilotlarning ish uslublari o'rganilib, ulardan ayrim tavsiyaviy takliflarni milliyligimizga moslagan holda ishlab chiqilib dars mashg'ulotlarida ulardan foydalanish tavsiya etiladi.

Jamoa bilan samarali ishlashda nutq faoliyati:

1. Qayta aytish. Bunda o'qituvchi bergan savol yoki muammoga o'quvchi o'z javobini aytganda o'qituvchi uni to'g'ri tushunganligini anglashi uchun o'quvchidan fikrini yana bir bor qayta aytishini talab qilish.

2. Takrorlash. Bu bosqichda o'quvchi ikki marotaba o'z javobini qayta aytgandan so'ng, o'qituvchi ham o'quvchining fikrini so'zma-so'z takrorlagan holda uni javobini aniq yetkaza olganligini so'raydi.

3. Mulohaza yuritish. Bu bosqichda o'quvchidan olingan javob uchun izoh talab qilinadi.

4. Qo'shimcha qo'shish. Jarayonda o'quvchidan fikri uchun yana qo'shimcha qo'sha olishi mumkin yoki yo'qligini, agar qo'shimchasi bo'lsa izohlashini taklif qilish.

5. Kutish vaqti. O'quvchidan qo'shimcha vaqt berish orqali yangi yoki to'ldirilgan fikr kutish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidan sinfni samarali boshqarishda ochiq muloqot, hamkorlik va o'quvchilarning faol ishtirokini birinchi o'ringa qo'yadigan strategik yondashuvlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ijobiy va interaktiv ta'lim muhitini yaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini va muvaffaqiyatga intilishini ta'minlashi mumkin. O'rganish uchun qulay muhit yaratish uchun psixologik strategiyalardan foydalanish umumiy sinf jamoasidagi muhitni yaxshilaydi. Oxir oqibat, ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali o'qituvchilar o'quvchilar jamoasida akademik o'sish va shaxsiy rivojlanishga yordam beradigan sinf jamoasini muvaffaqiyatli boshqarishi mumkin. Bu borada pedagoglarga kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish samarali ta'lim muhitini yaratish uchun juda muhimdir. Sinfni boshqarishda muloqotning rolini tushunish, o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqot strategiyalarini ishlab chiqish va sinfni boshqarish uchun shaxslararo ko'nikmalarni yaxshilash muloqot kompetentsiyasini rivojlantirishda muhim qadamdir. Ushbu jihatlarga e'tibor qaratadigan modelni amalga oshirish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat o'zlarining kasbiy o'sishiga foyda keltiradigan, balki o'quvchilarning o'qib o'rganishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kuchli muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirib borishi o'quvchilar uchun muvaffaqiyatli va boyitilgan ta'lim muhitini yaratishning qulay kaliti bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA MULOQAT (n.d.) получен August 19, 2024, от cyberleninka.ru
2. Kommunikativ kompetensiya - o'quvchining muloqot. (n.d.) получен August 19, 2024, от interscience.uz
3. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING (n.d.) получен August 19, 2024, от cyberleninka.ru
4. O'zbekiston respublikasi. (n.d.) получен August 19, 2024, от <http://arm.sammoi.uz/library/download/891>
5. ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIM. (n.d.) получен August 19, 2024, от staff.tiame.uz
6. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari (n.d.) получен August 19, 2024, от www.avloniy.uz
7. ТАЪЛИМ МЕНЕЖМЕНТИ. (n.d.) получен August 27, 2024, от <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-21088.pdf>
8. ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ БОШҚАРИШ дарслик. (n.d.) получен August 27, 2024, от api.tivpi.online-library.uz
9. “Психология фани ва ёшларнинг ривожланиши” (n.d.) получен August 27, 2024, от api.scienceweb.uz